

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

RAXIMOVA E'TIBOR RUSTAMOVNA

**O'SMIR MULOQOTIDAGI PSIXOLOGIK QIYINCHILIKLAR
DIAGNOSTIKASI VA KORREKSIYASI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
Psychological Sciences**

Raximova E'tibor Rustamovna

О'smir muloqotidagi psixologik qiyinchiliklar diagnostikasi va korreksiyasi3

Рахимова Эътибор Рустамовна

Коррекция и диагностика психологических трудностей общения в
подростковом возрасте.....20

Raximova Etibor

Diagnosis and correction of psychological difficulties in adolescent
communication.....38

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 42

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

RAXIMOVA E'TIBOR RUSTAMOVNA

**O'SMIR MULOQOTIDAGI PSIXOLOGIK QIYINCHILIKLAR
DIAGNOSTIKASI VA KORREKSIYASI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2022.3.PhD/P421 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertasiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdpu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xalilova Nargiza Ikromaliyevna
psixologiya fanlari doktori (DSc), dosent

Rasmiy opponentlar:

Kamilova Nodira Gayratovna
psixologiya fanlari doktori (DSc), dosent

G‘oyibova Nargiza Anarboyevna
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertasiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021. P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «___»_____kuni soat_____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertasiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-82-32).

Dissertasiya avtoreferati 2023 yil «___»_____kuni tarqatildi. (2023 yil «___»_____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

F.A.Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, psixologiya fanlari doktori (DSc), dosent

N.B.Atabayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, psixologiya fanlari doktori (DSc), dosent

Z.T.Nishanova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bugungi kunda nufuzli xalqaro tashkilotlar va dunyo mamlakatlarning bolalar ta'limiga berayotgan e'tibori tufayli yoshlar har bir davlatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy boyligi, sayyoramizda farovon hayot va yuksak taraqqiyot barqaror bo'lishi uchun yangi g'oyalar va ijodiy ruhdagi sa'y-harakatlarni amalga oshiradigan beqiyos kuch ekanligi e'tirof etilmoqda. Niderlandiyadagi «Global o'smirlar» loyihasi (The Global Teenager Project) maktablarda ta'lim oluvchi o'quvchilarni ta'limiy dasturlarda birlashtirib, ularda muloqot ko'nikmalarining rivojlanishiga imkon yaratmoqda¹. Bu borada dunyo miqyosida maktab o'quvchilarini barkamol qilib tarbiyalash, jamiyat haqidagi zaruriy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ijtimoiy hayotga moslashtirish, kommunikativlik (muloqotga kirishish), axborot bilan ishlash, o'zini o'zi kamol toptirish, faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish hamda atrofdagi insonlar, tengdoshlari bilan muloqot jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan psixologik qiyinchiliklarning oldini olish masalalari dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot markazlarida muomala, kommunikasiya, muloqot o'rnatish, ma'lumot almashish, o'zaro ta'sir o'tkazish, bir-birini idrok etish, qondirilmagan ehtiyojlar, motivasion, kognitiv, hissiy dissonanslar, shaxsiy ichki nizolar, shaxslararo munosabatlarning yo'nalishi, muloqotning shaxs xususiyatlarida aks etishi, kommunikativ sohada o'zini o'zi rivojlantirish borasidagi ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada insonning muloqotdagi qiyinchiliklari, kommunikativ ko'nikma va kommunikativ kompetentlik, shaxs tiplari, emosional hayrixoxlik, yolg'izlik hissi bilan bog'liq psixologik muammolar diagnostikasi va psixokorreksiyasini amalga oshirish, psixolog mutaxassis faoliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan masalalariga e'tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda ta'lim sifatini oshirish va o'quvchi-yoshlarda yuksak bilim va iste'dodni rivojlantirish hamda faol fuqarolik jamiyatining shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlari belgilanib, zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi: «Yoshlar uchun ochiq va sifatli o'qitish tizimini qaror toptirish, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal bilim olishini ta'minlash, iqtidorli va iste'dodli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish»² muhim vazifalar sifatida belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2021 yil 13 iyuldagi PF-6260-son «Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» Farmonlari, 2018 yil 19 apreldagi PQ-3674-son «O'zbekiston Respublikasi innovasion rivojlanish vazirligi huzurida ilg'or texnologiyalar markazini tashkil qilish to'g'risida» Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi 472-son «Psixologiya sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini

¹ <https://globalteenager.org/>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» <http://lex.uz/docs/3107036>

yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida» qarori hamda ushbu faoliyat tizimiga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar doirasida belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertasiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamiz olimlaridan F.A.Akramova, D.M.Anvarova, E.I.Ganeyeva, E.G‘.G‘oziyev, N.A.G‘oyibova, M.F.Dadaxodjayeva, V.M.Karimova, N.D.Qosimova, G.A.Qurbonova, N.Sh.Mullaboyeva, N.T.Norqulova, P.S.Ergashev va boshqalar muloqot, muomala maromi, muloqotning ijtimoiy-psixologik jihatlari, o‘smir muloqotidagi individual uslublar, affilasiya motivi, o‘quvchilarning tengdoshlari bilan o‘zaro munosabati, shaxs ijtimoiylashuvining omili bilan bog‘liqligi masalalarini ilmiy tadqiq etishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi olimlaridan M.Andersen, A.A.Bodalev, D.Kati, Ye.A.Klimov, A.A.Kolomenskiy, Ye.S.Kuzьmin, V.N.Kunisina, V.A.Labunskaya, G.Lassvell, A.A.Leontyev, L.Li, B.F.Lomov, B.D.Parigin, I.Ye.Strelkov, Ye.V.Sukanova va boshqalarning izlanishlarida inson faoliyatining turi, nutq xususiyatlari, shaxsning ijtimoiy-perseptiv sohasi, munosabatlar tizimi, murojaat shakllari, o‘zaro ta‘sir ko‘nikmalarining rivojlanish darajasi va muloqot sharoitlari, suhbatdoshlarning bir-biridan norozi bo‘lishi, axborot almashinish jarayonida maqsadlarning noaniqligi, o‘zaro bir-birini tushunmaslik va uning negizida nizolarning yuzaga kelishi ilmiy nuqtai nazardan tadqiq etilgan.

Xorij olimlaridan A.Adler, G.Allport, A.Bandura, E.Bern, W.Frankl, Z.Freud, K.Jung, A.Maslow, K.Rogers, B.F.Skinner va boshqalarning shaxslararo o‘zaro munosabatlar va ulardagi buzilishlar, nizoli holatlar, shaxs ijtimoiy ehtiyojlarini qondirilmasligi, xavotirlanish holatlari, destruktiv xulq-atvor, ego-holati, ijtimoiy o‘rganish, shaxsiy fikr, o‘zini o‘zi anglash, asosiy ehtiyoqlarni qondirilishiga asoslangan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Dissertasiya mavzusining dissertasiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot ishi Upganch davlat univepsitetining ilmiy-tadqiqot ishlari pejasiga muvofiq «Yoshlarning ma‘naviy qiyofasini yuksaltirishning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, va ma‘naviy-madaniy muammolarini o‘rganish» mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan (2017-2021 y.y.).

Tadqiqotning maqsadi o‘smirlik davrida muloqotdagi qiyinchiliklarni tashxis qilish va bartaraf etishning psixologik imkoniyatlarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘smirlik davrida kommunikativ ko‘nikmalarni diagnostika qilish orqali muloqotdagi qiyinchiliklarni ustuvor komponentlarini aniqlash;

muloqotdagi qiyinchiliklarni namoyon bo'lishiga hissiy sohani tadqiq etish natijasida o'smir «muloqotdagi to'siqlar»ni o'rganish;

o'smirlik davrida muloqot malakalarini rivojlantirishda shaxsiy-psixologik to'siqlarning ta'sirini asoslash;

o'smirlik davrida muloqot jarayonidagi xulq-atvor xususiyatlariga samarali ta'sir ko'rsatuvchi psixokorreksion modelni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.

Tadqiqot ob'yekti sifatida o'smirlik davrida muloqotdagi qiyinchiliklar diagnostikasi va korreksiyasi jarayoni tanlangan bo'lib, Urganch shahridagi 6-son umumta'lim maktabining 7-sinfi o'quvchilaridan 71 nafar, 9-sinfi o'quvchilaridan 74 nafar, Toshkent shahar Olmazor tumanidagi 234-son umumta'lim maktabining 7-sinfi o'quvchilaridan 69 nafar, 9-sinfi o'quvchilaridan 63 nafar, jami 277 nafar respondent jalb etilgan.

Tadqiqotning predmeti o'smirlik davrida muloqotdagi qiyinchiliklarni namoyon bo'lishi va bartaraf etishning psixologik imkoniyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat metodlari, shuningdek, V.A.Labunskayaning «Muloqotdagi psixologik qiyinchiliklarni diagnostika qilish» metodikasi, L.Mixelsonning «Kommunikativ malakalar» metodikasi, A.Megrabyanning «Emosional xayrixohlik» metodikasi, D.Rassel va M.Fergysonning «Yolg'izlikni sub'yektiv his qilishni aniqlash» metodikalaridan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik-statistik metodlaridan Styudentning t-mezoni hamda K.Pirsonning r-korrelyasiya koeffisienti orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'smirlik davrida kommunikativ ko'nikmalarni diagnostika qilinishiga ko'ra, suhbatdoshni tushunish, shaxs o'zini o'zi idrok etishi, muloqot jarayonida refleksiya va empatiyaning namoyon bo'lishi, fikrlashdagi ochiqlik va shaxsiy chegarani yaratish bilan uyg'unlashish orqali qiyinchiliklarni mazmuniy-instrumental komponentlari ustuvor xarakterga ega ekanligi dalillangan;

muloqotdagi qiyinchiliklarni shakllanishiga hissiy sohani ta'sirini tadqiq etish natijasida xulq-atvordagi xavotirlanish, agressivlik, aybdorlik, tengdoshlari bilan aloqa o'rnata olmaslik, o'zaro munosabatlarda yuzaga keladigan noqulaylik, emosional empatiya, yolg'izlik hissini barqaror rivojlanishi «emosional xayrixohlik» indikatorini kuchaytirganligi sababli o'smirlarda «muloqotdagi to'siqlar»ni shakllanishi dalillangan;

o'smirlik davrida muloqot malakalarini rivojlantirish uchun o'zaro munosabatlardagi shaxsiy psixologik to'siqlarni ijtimoiy persepsiyaning empatiya omilining ustuvorligi orqali mo'tadillashtirish natijasida kommunikativ-refleksiv sohani barqarorlashishi asoslangan;

o'smirlik davrida muloqotdagi qiyinliklarni bartaraf qilish uchun insoniy munosabatlarda kommunikativ faoliyatni kuchaytirish, shaxslararo o'zaro aloqani yaxshilash, shaxsiy, mazmuniy, instrumental, refleksiv komponentlarni rivojlanishiga asoslanib, kommunikativ-xulq-atvor sohasiga korreksion adaptiv ta'sir etish muhimligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

shaxs rivojlanishida muloqotdagi qiyinchiliklarning tarkibiy komponentlarini o‘zaro aloqadorligi va uning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi psixologik omillarni aniqlashtirish asosida o‘smir muloqotidagi qiyinchiliklar psixologiyasi bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar ishlab chiqilgan;

o‘smirlik davrida muloqotdagi qiyinchiliklarni aniqlashga xizmat qiluvchi psixodiagnostik metodikalarning kompleks variantlari taklif etilgan;

o‘smirlik davrida muloqotdagi qiyinchiliklarni oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha pedagoglar, amaliyotchi psixologlar va ota-onalar uchun mo‘ljallangan amaliy tavsiyalar kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanish ob‘yektlarining maqsadga mos tanlanganligi, respondentlarning yetarlicha reprezentativligi, foydalanilgan metodikalarning validligi, qo‘lga kiritilgan empirik miqdorlarning matematik-statistikaning ishonchli usullari yordamida tahlil qilinganligi, zamonaviy elektron dasturiy vositalar qo‘llanilgani, izlanishlar aniq va rejaviy bosqichlarda bir-birini to‘ldiruvchi usullar yordamida amalga oshirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarini ilmiy ahamiyati o‘smirlik davrida muloqotdagi qiyinchiliklarni namoyon bo‘lishi, kommunikativ malakalar, emosional empatiya, yolg‘izlik hissini muloqotdagi qiyinchilik bilan aloqadorligini asoslanilishi hamda o‘smirlik davrida muloqotdagi qiyinchilik, kommunikativ kompetentlik, emosional empatiya, yolg‘izlikning muloqotdagi qiyinchiliklarni kelib chiqishiga ta’sir ko‘rsatuvchi psixologik mexanizmlarining mazmun-mohiyatini ochib berilganligi hamda olingan natijalar «Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya» fanini ilmiy jihatdan asoslab berilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan ma’lumotlar, xulosalar va ilgari surilgan g‘oyalar olingan tajribaviy-empirik ma’lumotlardan shaxsda muloqotdagi qiyinchiliklarni namoyon bo‘lishini oldini olishda foydalanish mumkinligi, olingan natijalar va ilgari surilgan g‘oyalar o‘smirlik davrida muloqotdagi qiyinchiliklarni oldini olishga taalluqli konseptual nazariyasining shakllanishiga xizmat qilishi, nazariy umumlashma va tahlillarda muloqotdagi qiyinchiliklarni tekshirishga mo‘ljallangan metodikalardan foydalanishda, o‘smirlik davrida korreksion-rivojlantiruvchi yo‘nalishni aniqlashtirishda, shuningdek, «Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya», «Psixologik trening asoslari», «Umumiy psixodiagnostika» fanlari bo‘yicha nazariy va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘smir muloqotidagi qiyinchiliklar diagnostikasi va korreksiyasiga oid masalasini tadqiq etish natijasida:

o‘smirlik davrida kommunikativ ko‘nikmalarni diagnostika qilinishiga ko‘ra, suhbatdoshni tushunish, shaxs o‘zini o‘zi idrok etilishi, muloqot jarayonida refleksiya va empatiyaning namoyon bo‘lishi, fikrlashdagi ochiqlik va shaxsiy chegarani yaratish bilan uyg‘unlashish orqali qiyinchiliklarni mazmuniy-instrumental komponentlari ustuvor xarakterga ega ekanligi dalillashga doir xulosalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2023

yil 4 apreldagi PM-10-sonli buyrug‘i bilan «Ontogenez psixologiyasi va differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy Markazining 2023 yil 11 apreldagi PM-10-m-son ma‘lumotnomasi). Natijada o‘smirlik davrida kommunikativ ko‘nikmalarni diagnostika qilish orqali muloqotdagi qiyinchiliklarni ustuvor komponentlarini aniqlash imkoni kengaytirilgan.

muloqotdagi qiyinchiliklarni shakllanishiga hissiy sohani ta‘sirini tadqiq etish natijasida xulq-atvordagi xavotirlanish, agressivlik, aybdorlik, tengdoshlari bilan aloqa o‘rnata olmaslik, o‘zaro munosabatlarda yuzaga keladigan noqulaylik, emosional empatiya, yolg‘izlik hissini barqaror rivojlanishi «emosional xayrihohlik» indikatorini kuchaytirganligi sababli o‘smirlarda «muloqotdagi to‘siqlar»ni shakllanishini dalillagan ma‘lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2023 yil 4 apreldagi PM-10-sonli buyrug‘i bilan «Umumiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy Markazining 2023 yil 11 apreldagi PM-10-m-son ma‘lumotnomasi). Natijada muloqotdagi qiyinchiliklarni namoyon bo‘lishiga hissiy sohani tadqiq etish natijasida o‘smir “muloqotdagi tusiqlar”ni o‘rganishga sharoit yaratilgan.

o‘smirlik davrida muloqot malakalarini rivojlantirish uchun o‘zaro munosabatlardagi shaxsiy psixologik to‘siqlarni ijtimoiy persepsiyaning empatiya omilining ustuvorligi orqali mo‘tadillashtirish natijasida kommunikativ-refleksiv sohani barqarorlashishi asoslangan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2023 yil 4 apreldagi PM-10-sonli buyrug‘i bilan «Pedagogik psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy Markazining 2023 yil 11 apreldagi PM-10-m-son ma‘lumotnomasi). Natijada o‘smirlik davrida muloqot malakalarini rivojlantirishda shaxsiy-psixologik to‘siqlarning ta‘sirini asoslashga erishilgan;

o‘smirlik davrida muloqotdagi qiyinliklarni bartaraf qilish uchun insoniy munosabatlarda kommunikativ faoliyatni kuchaytirish, shaxslararo o‘zaro aloqani yaxshilash, shaxsiy, mazmuniy, instrumental, refleksiv komponentlarni rivojlanishiga asoslanib, kommunikativ-xulq-atvor sohasiga korreksion adaptiv ta‘sir etish muhimligi isbotlangan ma‘lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2023 yil 4 apreldagi PM-10-sonli buyrug‘i bilan «Ontogenez psixologiyasi va differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy Markazining 2023 yil 11 apreldagi PM-10-m-son ma‘lumotnomasi). Natijada o‘smirlik davrida muloqot jarayonidagi xulq-atvor xususiyatlariga samarali ta‘sir ko‘rsatuvchi psixokorreksion modelni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish samaradorligi ortgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqot natijalari respublika miqyosidagi 2 ta va xalqaro darajada 2 ta ilmiy konferensiyalarda xulq-atvor xususiyatlariga muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot ishining asosiy natijalari bo'yicha 8 ta ilmiy ish chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining dissertasiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola jumladan, 3 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertasiya tuzilishi va hajmi. Dissertasiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertasiyaning umumiy hajmi 130 betni tashkil qiladi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

KIRISH qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlariga mosligi asoslangan, dissertasion tadqiqotning dissertasiya bajarilgan oliy o'quv yurti ilmiy-tadqiqot rejalari bilan aloqadorligi ochib berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekti, predmeti va tadqiqot metodlari ifodalangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan ma'lumotlarning ishonchligi bayon etilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining tatbiqi va ularning sinovdan o'tishi bayon qilingan. Bundan tashqari chop etilgan ishlar va dissertasiya hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning birinchi bobi **“Muloqotdagi qiyinchilik muammosini pedagogik-psixologik adabiyotlarda yoritilishi”** deb nomlangan bo'lib, unda muloqot borasidagi dastlabki fikrlarning yuzaga kelishi, muloqotdagi qiyinchilik masalasi xorij olimlari tajribalarida o'rganilishi, O'zbekiston psixologlari tadqiqotlarida muomala, muloqot masalalarining ilmiy talqiniga doir masalalarga bag'ishlangan. Sharq allomalaridan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Xojib, Unsurulmaoliy Kaykovus, Muhammad Sodiq Qoshg'ariy, Abdurahmon Jomiy va boshqalarning muloqot, muomala, insoniy munosabatlarda o'zaro munosabatlarning xususiyatlariga doir fikrlar qayd etilgan. Shuningdek, muloqotdagi qiyinchilik tushunchasiga nisbatan psixolog olimlar tomonidan taklif etilgan ta'riflarning mazmun-mohiyati tahlil qilingan. Unga ko'ra, Ye.V.Sukanovanning ta'kidlashicha, muloqotdagi qiyinchilik “insonlarning bir-birini tushunmasliklari ko'rinishidagi o'zaro munosabatlarning real vaziyatlarida o'zini namoyon qiladigan o'ziga xos ijtimoiy-psixologik hodisa”dir. V.A.Labunskayaning fikriga ko'ra, muloqotdagi qiyinchilik “sub'yektiv va ob'yektiv xarakterga ega bo'lgan muloqot jarayonini ham, natijasini ham o'z ichiga oladi” degan nuqtai nazariga asoslangani ko'rsatiladi.

Mazkur bobda muloqotdagi qiyinchilik muammosini tadqiqotlarda o'rganish tajribasini tahlil qilishda xorij va o'zbekistonlik psixolog olimlarning ishlarga e'tibor qaratilgan. Xususan, birinchi bobning asosiy qismida qator olimlar B.F.Lomov, A.A.Leontyev, L.S.Vigotskiy, Ye.V.Sukanova, V.A.Labunskaya, V.N.Kunisina, I.Ye.Strelkov, A.A.Bodalev, G.A.Kovalev, M.Andersen, D.Kati, Ye.A.Klimov, A.A.Kolomenskiy, E.S.Kuz'min, G.Lassvell, L.Li, V.F.Lomov, B.D.Parigin, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuz'mina, A.N.Leontyev, A.K.Markova, L.A.Nevarnisina, V.V.Rijov, I.A.Zimnyaya, V.A.Kan-Kalik, L.A.Povarnishina, S.L.Rubinshteyn va

boshqalar tomonidan muloqot inson faoliyatining turlaridan biri sifatida, insonlarning bir-birini tushunmasliklari, nutqning xususiyatlari, shaxsning ijtimoiy-perseptiv sohasi, uning munosabatlar tizimi, murojaat shakllari, o'zaro ta'sir ko'nikmalarining rivojlanish darajasi va o'zaro aloqaga kirishish sharoitlari, faoliyat va muloqotda duch keladigan qiyinchiliklar, o'quv faoliyatida qiyinchiliklarga ta'sir qiluvchi omillar, muloqot sherigini rad etish, uning harakatlari, matnni (xabarni) va sherikni noto'g'ri tushunish, kommunikativ vaziyatdagi o'zgarishlar, o'zining psixologik holati tufayli prognoz qilingan (rejalashtirilgan) aloqani amalga oshirishda "muvaffaqiyatsizlik" holati, ekstraversiya va introversiya kabilar nuqtai nazaridan o'rganilganligi ko'rsatilgan.

Shuningdek, shaxsda muloqot va muomala jarayonini rivojlanishi muammosi o'zbek psixologlaridan V.Karimova, E.G'.G'oziyev, P.S.Ergashev, F.A.Akramova, E.I.Ganeyeva, N.Sh.Mullaboyeva, G.A.Qurbonova, N.A.G'ayibova, N.T.Norqulova, M.F.Dadaxodjayeva, D.M.Anvarova va boshqalar tomonidan muomala, muloqotning kommunikativ, perseptiv, interaktiv tomonlari, muloqotning funksiyalari va vazifalari, turli sibling maqomidagi o'smirlarning tengdoshlari bilan munosabatlari, yolg'izlik hissi, affiliasiya motivi, o'quvchilarida muomala maromi, o'smirlar ma'naviyati shakllanishi va rivojlanishi, o'smirlar ijtimoiylashuvida ibrat ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan bog'liq holda yoritishga harakat qilingan.

"O'smirlik davrida muloqotdagi qiyinchiliklarning psixodiagnostikasi" deb nomlangan ikkinchi bobida o'smirlik davrida muloqotdagi qiyinchiliklarning psixologik xususiyatlari, muloqot ko'nikmalarining o'smir muloqotidagi qiyinchiliklariga ta'siri, o'smirlik davrida muloqotdagi qiyinchiliklarga emosional holatlarning ta'siriga doir empirik ma'lumotlar asosida tahlillar bayon qilingan.

Ma'lumki, o'smirlik davri shaxs taraqqiyotida muhim davrlardan hisoblanadi. Mazkur davr o'smirni shaxs sifatida shakllanadigan, kattalik hissining namoyon bo'lishi, o'zini o'zi anglash, o'zini o'zi baholash imkoniyatlarini yaqqol namoyon bo'lishi hamda muloqot malakalarini rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Ayniqsa, o'smirlik davrida muloqot yetakchi komponent ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, mazkur yosh bosqichi bilan bog'liq ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'rganish muhim hisoblanadi. Shu bois, sinaluvchilar guruhida V.A.Labunskayaning "Muloqotdagi psixologik qiyinchiliklarni diagnostika qilish" metodikasi o'tkazildi. Metodika natijalari asosida to'plangan ma'lumotlar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi. Miqdoriy tahlil natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ifodali nutq ijtimoiy-perseptiv xususiyatlar ($r=0,79$; $p\leq 0,01$), muloqot munosabatlari ($r=0,75$; $p\leq 0,01$), hamkorlik ko'nikmalari ($r=0,75$; $p\leq 0,01$), muloqot shartlari ($r=0,57$; $p\leq 0,01$) bilan ahamiyatli bog'liqlikka ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Mazkur ko'rsatkichlardan ma'lum bo'ladiki, o'z nutqini ifodali tarzda bayon eta oladigan insonlarda o'zgalarni to'g'ri tushuna olish, muloqot jarayonidagi moslashuvchanlik, shaxslararo munosabatlarda hamfikrlilik, muloqotdagi turli vaziyatlarni anglash kabi xususiyatlar tarkib topadi. Shuningdek, bugungi kunda fan-texnika taraqqiyotining rivojlanishi, internet, uyali telefonlardan o'smir tomonidan surunkali foydalanishi ularda insonlar bilan muloqot qilishda ma'lum bir cheklovlarni yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, tengdoshlariga va o'zidan katta

insonlarga fikrlarini to'liq va aniq ifodalay olmaslik ularda muloqotdagi qiyinchiliklarni yuzaga kelishiga olib kelishi tajribalardan ma'lum bo'ldi.

Ijtimoiy-perseptiv xususiyatlar ifodali nutq ($r=0,79$; $p\leq 0,01$), muloqot munosabatlari ($r=0,78$; $p\leq 0,01$), hamkorlik ko'nikmalari ($r=0,84$; $p\leq 0,01$), muloqot shartlari ($r=0,58$; $p\leq 0,01$) bilan o'zaro aloqadorlikka ega ekanligi kuzatildi.

1-jadval

7-sinf o'quvchilarida muloqotdagi qiyinchilikning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik

| Muloqotdagi qiyinchilikning tarkibiy qismlari | Ifodali nutq | Ijtimoiy-persyektiv xususiyatlar | Muloqot munosabatlari | Hamkorlik ko'nikmalari | Muloqot shartlari |
|---|--------------|----------------------------------|-----------------------|------------------------|-------------------|
| Ifodali nutq | 1 | 0,79** | 0,75** | 0,75** | 0,57** |
| Ijtimoiy-persyektiv xususiyatlar | 0,79** | 1 | 0,78** | 0,84** | 0,58** |
| Muloqot munosabatlari | 0,75** | 0,78** | 1 | 0,80** | 0,58** |
| Hamkorlik ko'nikmalari | 0,75** | 0,84** | 0,80** | 1 | 0,67** |
| Muloqot shartlari | 0,57** | 0,58** | 0,58** | 0,67** | 1 |

Izoh: ** $p\leq 0,01$

Natijalardan ma'lumki, shaxsning ijtimoiy munosabatlarda o'zgalarni to'g'ri idrok qila olishiga, nutqning tushunarligi, ijobiy munosabat ko'rsatish, o'zgalarga nisbatan xayrixohlik, muloqot davomida turli shart-sharoitlarning qulayligi kabi xususiyatlar sezilarli ta'sir o'tkazadi. Muloqot munosabatlari ifodali nutq ($r=0,75$; $p\leq 0,01$), ijtimoiy-perseptiv xususiyatlar ($r=0,78$; $p\leq 0,01$), hamkorlik ko'nikmalari ($r=0,80$; $p\leq 0,01$), muloqot shartlari ($r=0,58$; $p\leq 0,01$) bilan ahamiyatli bog'liqlik mavjudligi aniqlandi. Mazkur ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, insonlardagi shaxslararo munosabatlarda o'zgalarga nisbatan ijobiy hislarning namoyon bo'lishida shaxsda boshqalar nutqini anglash qobiliyati, suhbatdoshlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, muloqotda hamkorlik o'rnatishga tayyorlik, munosabatga kirishishdagi shart-sharoitlar kabi omillar muhim ahamiyat kasb etadi.

Hamkorlik ko'nikmalari ifodali nutq ($r=0,75$; $p\leq 0,01$), ijtimoiy-perseptiv xususiyatlar ($r=0,84$; $p\leq 0,01$), muloqot munosabatlari ($r=0,80$; $p\leq 0,01$), muloqot shartlari ($r=0,67$; $p\leq 0,01$) bilan ahamiyatli bog'liqlikka ega ekanligi qayd etildi. Bundan ko'rinadiki, har qanday faoliyat jarayonida o'zga shaxslar bilan hamkorlik qilishga moyillikning ortishi, o'z navbatida, suhbatdoshlarning o'z fikrini yetarlicha yetkaza olishi, muloqotda o'zaro bir-birini tushuna olish, shaxslararo munosabatlardagi samimiylik, suhbat davomida yuzaga keladigan turli talablarga moslashish darajalarining ham ortishiga sabab bo'ladi. Muloqot shartlari ifodali nutq ($r=0,57$; $p\leq 0,01$), ijtimoiy-perseptiv xususiyatlar ($r=0,58$; $p\leq 0,01$), muloqot munosabatlari ($r=0,58$; $p\leq 0,01$), hamkorlik ko'nikmalari ($r=0,68$; $p\leq 0,01$) bilan ahamiyatli bog'liqlik kuzatildi. Natijalardan ma'lum bo'ladi, shaxsda muloqot jarayonida yuzaga keluvchi turli shart-sharoitlarga moslashish ko'nikmasining rivojlanishiga nutqning ifodaliligi, boshqa insonlarning holatini tushunisha bilish, ijobiy munosabatlarning namoyon bo'lishi, faoliyat davomida o'zgalarni qo'llab-quvvatlash kabi omillar bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

Ma'lumki, o'smirlik davrida muloqotdagi qiyinchiliklarni shakllanishiga kommunikativ ko'nikmalarni ta'sirini aniqlash maqsadida sinaluvchilar guruhida V.A.Labunskayaning "Muloqotdagi psixologik qiyinchiliklarni diagnostika qilish" va L.Mixelsonning "Kommunikativ malakalar" metodikalari o'tkazildi. O'tkazilgan metodikalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilinib, miqdoriy tahlil natijalari jadvallarda aks ettirildi.

2-jadval.

9-sinf o'quvchilarida muloqotdagi qiyinchilik va kommunikativ kompetentlikning ustuvor strategiyalari o'rtasidagi aloqadorlik

| Kommunikativ kompetentlikning ustuvor strategiyalari | Muloqotdagi qiyinchilikning tarkibiy qismlari | | | | |
|--|---|----------------------------------|-----------------------|------------------------|-------------------|
| | Ifodali nutq | Ijtimoiy-perspektiv xususiyatlar | Muloqot munosabatlari | Hamkorlik ko'nikmalari | Muloqot shartlari |
| Tobelik | 0,03 | -0,00 | 0,01 | -0,02 | -0,12 |
| Kompetentlik | -0,06 | -0,06 | -0,07 | -0,09 | 0,01 |
| Agressivlik | 0,05 | 0,10 | 0,10 | 0,16 | 0,23* |

Izoh: * $p\leq 0,05$;

Natijalarini tahlil qiladigan bo'lsak, agressivlik muloqot shartlari ($r=0,23$; $p\leq 0,05$) bilan ahamiyatli bog'liqlikka ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Mazkur holatni shunday izohlash mumkinki, muloqot jarayonida yuzaga keladigan turli salbiy to'siqlar, shart-sharoit va talablarning haddan ortiq ko'pligi o'smirlarda agressivlikning kelib chiqishi olib keladi. Shu bilan bir qatorda, shaxsdagi tajovuzkorlik xususiyati muloqot jarayonida yuzaga keladigan omillarning mohiyatini tushunmaslikka sabab bo'lib, bu holat muloqotchanlik sifatlarining namoyon bo'lishiga salbiy ta'sir qiladi.

Dissertasion tadqiqot ishimizda muloqotdagi qiyinchilikning shaxsdagi emosional xayrixoxlik bilan bog'liqlik darajasini aniqlashga e'tibor qaratdik. Buning uchun sinaluvchilar guruhida V.A.Labunskayaning "Muloqotdagi psixologik qiyinchiliklarni diagnostika qilish" metodikasi va "Emosional xayrixoxlik" metodikalari o'tkazildi. Metodika bo'yicha to'plangan empirik ma'lumotlar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi. Miqdoriy tahlil natijalari jadval va diagrammalarda aks ettirildi.

3-jadval

7-sinf o'quvchilarida muloqotdagi qiyinchilikning tarkibiy qismlari va emosional hayrixoxlik darajalari o'rtasidagi aloqadorlik

| Emosional hayrixoxlik darajasi | Muloqotdagi qiyinchilikning tarkibiy qismlari | | | | |
|-----------------------------------|---|---------------------------------|-----------------------|------------------------|-------------------|
| | Ifodali nutq | Ijtimoiy-perseptiv xususiyatlar | Muloqot munosabatlari | Hamkorlik ko'nikmalari | Muloqot shartlari |
| Emosional hayrixoxlik kursatkichi | 0,14 | 0,22** | 0,11 | 0,15 | 0,05 |

Izoh: ** $p\leq 0,01$

3-jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlarga ko'ra, emosional munosabat ijtimoiy-perspektiv xususiyatlar ($r=0,22$; $p\leq 0,01$) bilan ahamiyatli bog'liqlikka ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Natijalardan shuni qayd etish joizki, o'smirlik davrida o'zgalarga nisbatan ijobiy emosional munosabatlar tarkib topishi boshqa insonlarning ichki kechinmalari, holat va xususiyatlarini tushunish kabi muhim jihatlarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Ma'lumki, o'smirlik davrida muloqotdagi qiyinchiliklarni kelib chiqishi ulardagi emosional holatlardan yolg'izlik va emosional hayrixoxlik darajalarini

tekshirishga harakat qiladi. Shu nuqtai nazardan tadqiqotda ishtirok etgan sinaluvchilar guruhida V.A.Labunskayaning “Muloqotdagi psixologik qiyinchiliklarni diagnostika qilish” metodikasi va “Yolg‘izlik darajasini aniqlash” metodikalari o‘tkaziladi. Empirik ma’lumot natijalari miqdor va sifat jihatidan tahlil qilinib, 4-jadvalda aks ettirildi.

4-jadval


9-sinf o‘quvchilarida muloqotdagi qiyinchilikning tarkibiy qismlari va yolg‘izlik hissi o‘rtasidagi aloqadorlik

| Yolg‘izlik darajasi | Muloqotdagi qiyinchilikning tarkibiy qismlari | | | | |
|---------------------|---|---------------------------------|-----------------------|------------------------|-------------------|
| | Ifodali nutq | Ijtimoiy-perseptiv xususiyatlar | Muloqot munosabatlari | Hamkorlik ko‘nikmalari | Muloqot shartlari |
| Yolg‘izlik | 0,27** | 0,21* | 0,14 | 0,19 | 0,20 |

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$

Jadval natijalariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, yolg‘izlik hissining muloqotdagi qiyinchiliklar bilan aloqadorlik holatlari o‘rganilganda, mazkur komponentning ifodali nutq ($r=0,27$; $p \leq 0,01$), ijtimoiy-perseptiv xususiyatlar ($r=0,21$; $p \leq 0,05$) bilan ahamiyatli bog‘liqlikka ega ekanligi ma’lum bo‘ldi. Bundan shuni anglash mumkinki, o‘smirlarning ko‘pchilik oldida nutq so‘zlashi ularda xavotir hissining ortishiga sabab bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda, insonning yakka o‘zi qolishi boshqa shaxslarning emosional holatini to‘g‘ri tushunishga va ularni tahlil qilishga zamin yaratishi mumkin. Natijalardan ko‘rish mumkinki, o‘smirlik davrida muloqot yetakchi faoliyat ekanligini nazarda tutadigan bo‘lsak, notanish davralarda nutq so‘zlash, fikrlarni bayon qilish, ularda xavotirlanish holatlarini kuchayishiga olib keladi. Ayniqsa, inson atrofida uni qo‘llab-quvvatlovchi insonlarning bo‘lmasligi tengdoshlari va o‘zidan katta insonlarga fikrlarini ifodalay olmasliklari qayd etiladi.

Dissertasiyaning uchinchi bobi «**O‘smirlik davrida muloqotdagi qiyinchiliklarni psixokorreksiya qilish imkoniyatlari**» deb nomlanib, shaxsda muloqotdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga nisbatan yondashuvlar, muloqotdagi qiyinchiliklarni o‘smirlik davrida bartaraf etishga qaratilgan dasturning mazmuni, o‘smirlik davrida muloqotdagi qiyinchiliklarni bartaraf qilish xususiyatlariga doir ma’lumotlar tahlillari bayon qilingan.



1-rasm. O‘smirlik davrida muloqotdagi qiyinchilikning korreksion modeli

Mazkur bobda o‘smirlik davrida muloqotdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan psixokorreksion yondashuvlar tahlili berilgan. Bunda asosiy e‘tibor o‘smirlik davrida muloqotdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan korreksion model taklif qilingan. Biz tomonimizdan taklif qilingan modelning tarkibiy qismlari sifatida maqsadli, mazmunli, jarayonli, instrumental natijaviy-mezonli komponentlar ajratib ko‘rsatilib, uning mazmun, mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, korreksion dasturning samaradorligini ta‘minlash maqsadida psixologik trening

mashg'ulotlaridan iborat psixokorreksion dastur ishlab chiqildi. Unga ko'ra, dastur quyidagi mo'ljalga olish tabiati, mazmuni, bo'yicha mijoz bilan ishlash shakliga hamda davomiyligiga ko'ra, tarkibiy qismlarni o'zida mujassamlashtirgan holda ishlab chiqilgan. O'smirlik davrida muloqotdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan trening dasturi doirasida "buzuq telefon", "qattiq tosh", "qiziqarli qo'shiq", "shisha orqali suhbat", "quduq", "ismlar tarixi", "avtobus", "kaftdagi tilaklar" kabi mashqlar o'tkazildi.

O'tkazilgan psixokorreksion dastur samaradorligini ta'minlash maqsadida tadqiqotda ishtirok etgan sinaluvchilar guruhida retest amalga oshirildi. Buning uchun sinaluvchilar guruhida V.A.Labunskayaning "Muloqotdagi psixologik qiyinchiliklarni diagnostika qilish" metodikasi o'tkazilib, natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlili 5-jadvalda ko'rsatilgan.

5-jadval

O'smirlik davrida muloqotdagi qiyinchiliklar namoyon bo'lish komponentlarining rivojlanish ko'rsatkichlari, shakllantiruvchi eksperiment

| Sinaluvchilar guruhlari | Muloqotdagi qiyinchilikning tarkibiy qismlari | Treningdan oldingi ko'rsatkichlar | | Treningdan keyingi ko'rsatkichlar | | Tafovutning statistik ahamiyati (t-mezoni bo'yicha) |
|-------------------------|---|-----------------------------------|-----------------------------|-----------------------------------|-----------------------------|---|
| | | M ₁ | S ₁ ² | M ₂ | S ₂ ² | |
| Tajriba guruhi | Ifodali nutq | 9,4 | 5,1 | 11,8 | 5,9 | p≤0,05 |
| | Ijtimoiy-perseptiv xususiyatlar | 7,5 | 2,7 | 10,3 | 3,5 | p≤0,05 |
| | Muloqot munosabatlari | 9,2 | 4,3 | 12,2 | 5,8 | p≤0,05 |
| | Hamkorlik ko'nikmalari | 6,8 | 3,7 | 9,1 | 4,2 | p≤0,01 |
| | Muloqot shartlari | 8,6 | 4,1 | 10,2 | 4,9 | p≤0,01 |
| Nazorat guruhi | Ifodali nutq | 10,7 | 4,8 | 10,6 | 5,5 | p>0,05 |
| | Ijtimoiy-perseptiv xususiyatlar | 10,2 | 4,4 | 10,9 | 4,3 | p>0,05 |
| | Muloqot munosabatlari | 12,5 | 5,7 | 13,8 | 4,8 | p>0,05 |
| | Hamkorlik ko'nikmalari | 12,8 | 5,8 | 11,9 | 4,8 | p>0,05 |
| | Muloqot shartlari | 13,4 | 4,7 | 12,9 | 4,9 | p>0,05 |

Metodika natijalariga ko'ra, ifodali nutq bo'yicha nazorat guruhida dastlab M₁=10,7, keyin esa M₂=10,6 ko'rsatkichi aniqlangan bo'lsa, tajriba guruhida esa trening mashg'ulotidan oldin M₁=9,4, treningdan keyin M₁=11,8 ko'rsatkichi qayd

etildi. Ushbu natijalar tajriba guruhidagi sinaluvchilarning ifodali nutq bo'yicha qarashlari ma'lum darajada o'zgarganligini bildiradi. Bu esa o'z navbatida o'zgaralar bilan muloqot qilishda nutqning tushunarli va ravonligi muhim ahamiyat kasb etishi bo'yicha o'quvchilarda zaruriy bilimlar shakllanganligini ko'rsatadi

Ijtimoiy-perseptiv xususiyatlar shkalasi nazorat guruhida $M_1=10,2$, $M_2=10,9$, tajriba guruhida esa $M_1=7,5$ va $M_2=10,3$ ko'rsatkichi qayd etildi. O'tkazilgan trening mashg'ulotlari natijasida tajriba guruhida ijobiy o'zgarishlarga, ya'ni sinaluvchilarning shaxslararo munosabatlarda boshqa insonlarning emosional holatini tushunishga ahamiyatli ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan bir qatorda, ularning odamlar bilan uyg'un bo'lishiga va sog'lom munosabatlarga bo'lgan intilishining ortishiga sabab bo'ldi.

Muloqot munosabatlari komponenti bo'yicha nazorat guruhida $M_1=12,5$, $M_2=13,8$, tajriba guruhida esa $M_1=9,2$ va $M_2=12,2$ ko'rsatkichi aniqlandi. Tajriba guruhidagi sinaluvchilarda ushbu shkala bo'yicha treningdan oldingi ko'rsatkichga qaraganda yuqori natijalar namoyon bo'ldi. Bu esa ularga korreksion mashg'ulotlar o'z kommunikativ qobiliyatlarining kuchiga ishonishiga, shaxslararo munosabatlarda samimiy, faol va kirishuvchan bo'lishiga ta'sir ko'rsatganligini anglatadi.

Hamkorlik ko'nikmalari nazorat guruhida $M_1=12,8$ va $M_2=11,9$, tajriba guruhida $M_1=6,8$ va $M_2=9,1$ ko'rsatkichlarini tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin. Qayta diagnostikadan so'ng tajriba guruhidagi ishtirokchilarda o'zgalarni qo'llab-quvvatlashga intilish va xayrixohlikni namoyon qilish kabi xususiyatlarining rivojlanganligidan dalolat beradi.

Muloqot shartlari komponentida $M_1=13,4$ va $M_2=12,9$ ko'rsatkichi nazorat guruhida aniqlangan bo'lsa, tajriba guruhida esa $M_1=8,6$ va $M_2=10,2$ ko'rsatkichi qayd qilindi. Mazkur shkala bo'yicha tajriba guruhida treningdan keyin aniqlangan yuqoriroq natijalar sinaluvchilarda muloqot davomida yuzaga keladigan turli to'siqlarni yengish va samarali shaxslararo munosabatlarni ta'minlashga intilish kabi xususiyatlarning rivojlanishiga sabab bo'lganligini anglatadi.

Metodika natijalaridan ko'rinadiki, o'smirlik davrida muloqotdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishda psixologik treninglarning o'rni muhim hisoblanadi. Ayniqsa, o'smir shaxsida muloqot malakalarini rivojlanishida ijtimoiy muhit, tengdoshlar jamoasi hamda o'qituvchining shaxsiy namunasi muhim rol o'ynaydi.

XULOSA

O'smir muloqotidagi psixologik qiyinchiliklar psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasini o'rganishga qaratilgan psixologik izlanishlar asosida quyidagi **xulosalar** shakllantirildi:

1. Psixologiyada o'smirlik davridagi muloqotda yuz beradigan qiyinchiliklar, o'zaro bir-birini tushunmaslik jarayoni, suhbatdosh xulq-atvoriga moslashish, uning fikrlarini qabul qilishda emosional holatlarni nazorat qilishdagi ko'nikmalarning rivojlanmaganligi dolzarb muammodir.

2. O'smirlik davrida muloqotdagi qiyinchiliklarni yuzaga kelishining asosiy sabablarilaridan biri telefon, kompyuter kabi zamonaviy texnologiyalarning yoshlar

tomonidan jadallik bilan o'zlashtirilishi natijasida ularda telefon va kompyuter o'yinlariga surunkali tobelikning ortishi, ota-ona, o'qituvchilari hamda tengdoshlari bilan muomala, muloqot jarayoniga kirishishda qiyinchiliklarni yuzaga kelishiga olib kelishi isbotlandi.

3. O'smirlik davrida muloqotdagi qiyinchilik va emosional soha bilan sust darajada ahamiyatli aloqadorlik ko'zga tashlanib, emosional xayrixohlik bilan ijtimoiy-perseptiv xususiyatlar o'rtasida ijobiy korrelyasion aloqadorlik kuzatildi va nutq ohangi muloqot munosabatlarini hamkorlikka aylantirishga olib kelishi muloqot sharti sifatida ta'sir etishi empirik ma'lumotlar asosida izohlandi.

4. O'smirlik davrida kommunikativ ko'nikmalarni diagnostika qilinishiga ko'ra, suhbatdoshni tushunish, shaxs o'zini o'zi idrok etishi, muloqot jarayonida refleksiya va empatiyaning namoyon bo'lishi, fikrlashdagi ochiqlik va shaxsiy chegarani yaratish bilan uyg'unlashish orqali qiyinchiliklarni yengishda mazmuniy-instrumental komponentlari ustuvor xarakterga ega ekanligi tadqiqot jarayonida empirik aniqlandi;

5. Muloqotdagi qiyinchiliklarni shakllanishiga hissiy sohani ta'sirini tadqiq etish natijasida xulq-atvordagi xavotirlanish, agressivlik, aybdorlik, tengdoshlari bilan aloqa o'rnatilmaslik, o'zaro munosabatlarda yuzaga keladigan noqulaylik, yolg'izlik hissini barqaror rivojlanishi «emosional xayrixohlik» indikatorini kuchaytirganligi sababli o'smirlarda «muloqotdagi to'siqlar»ni shakllanib qolishiga asos bo'lishi isbotlandi;

6. O'smirlik davrida muloqot malakalarini rivojlantirish uchun o'zaro munosabatlardagi shaxsiy psixologik to'siqlarni yengishda empatiya omilining ustuvorligi orqali kommunikativ-refleksiv sohani barqarorlashtirish zarurligi asoslandi;

7. O'smirlik davrida muloqotdagi qiyinliklarni bartaraf qilish uchun kommunikativ faoliyatni kuchaytirish, o'zaro muloqotni yaxshilashga asoslanib, kommunikativ-xulq-atvor sohasiga korreksion adaptiv mexanizmni kiritish orqali ta'sir etish muhimligi isbotlandi.

Keltirilgan xulosalar asosida quyidagi amaliy **tavsiyalarni** berish maqsadga muvofiq:

1. O'smirlik davrida muloqotdagi qiyinchiliklarni psixologik tashxis qilish va psixokorreksion imkoniyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik qo'llanma va psixologik yo'riqnomalar ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish chora-tadbirlarini kengaytirish lozim;

2. O'smirlik davrida muloqotdagi qiyinchiliklarni samarali bartaraf etishga qaratilgan psixologik trening dasturini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiriq etish lozim;

3. O'smirlik davrida shaxslararo munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish, o'zaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish yordamida muloqotdagi qiyinchiliklarni oldini olishga erishish mumkin;

4. O'smirlik davrida muloqotdagi qiyinchiliklarni oldini olish maqsadida ular bilan davra suhbatlari, seminar-treninglarni tashkil qilish maqsadga muvofiq;

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2021.P.26.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ПЕДАГОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

РАХИМОВА ЭЪТИБОР РУСТАМОВНА

**КОРРЕКЦИЯ И ДИАГНОСТИКА ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ТРУДНОСТЕЙ
ОБЩЕНИИ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ**

**19.00.06 – Возрастная и педагогическая психология. Психология
развития**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ПСИХОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за № В2022.3.PhD/P421.

Диссертация выполнена в Ургенчском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.psi-ik.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель

Халилова Наргиза Икромалиевна

доктор психологических наук (DSc), доцент

Официальные оппоненты:

Камилова Нодира Гайратовна

доктор психологических наук (DSc), доцент

Гойибова Наргиза Анарбоевна

доктор философии по психологическим наукам (PhD)

Ведущая организация:

Джизакский государственный

педагогический университет

Защита диссертации состоится «__» _____ 2023 года в ___ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2021.P.26.02 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном педагогическом университете. (Адрес: 100185, г. Ташкент, Чиланзарский район, ул. Бунёдкор, 27. Тел.: (99871) 276- 82-32; факс: (99871) 276-76-51, e-mail: tdrukengash@edu.uz. Главный корпус, 2-й этаж, 4-й зал заседаний).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного педагогического университета (зарегистрирована за № ???). Адрес: 100185, г. Ташкент, Чиланзарский район, ул. Бунёдкор, 27. Тел.: (99871) 276- 82-32.

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2023 года.

(реестр Протокола рассылки №__ от «__» _____ 2023 года).

Ф.А.Акрамова

Председатель Научного совета
по присуждению ученых степеней, доктор психол. наук(DSc), доцент

Н.Б.Атабаева

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии (PhD) по психол. наукам, доцент

З.Т.Нишанова

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор психол. наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Сегодня в мире признается, что благодаря вниманию авторитетных международных организаций и страны, уделяющих образованию детей, молодежь является несравненной силой, которая реализует новые идеи и творческие усилия, чтобы сделать политическое, экономическое и социальное богатство каждому государству, процветающую жизнь и высокое развитие на планете устойчивыми. Проект «Глобальные подростки» (The Global Teenager Project) в Нидерландах объединяет обучающихся в школах в образовательные программы, позволяя им развивать коммуникативные навыки. В этом плане одними из актуальных проблем являются гармоничное воспитание школьников во всем мире, формирование необходимых знаний и умений об обществе, адаптация к общественной жизни, развитие коммуникативности (общения), работа с информацией, самосовершенствование, активная гражданская позиция и профилактика психологических трудностей, которые могут возникнуть в процессе общения с окружающими людьми, сверстниками.

Образовательные и научно-исследовательские центры мира особое внимание уделяют научным исследованиям по изучению коммуникации, общения, обмена информацией, взаимодействия, восприятия друг друга, неудовлетворенных потребностей, мотивационных, познавательных, эмоциональных диссонансов, личных внутренних конфликтов, сбоев в межличностном общении, ориентации отношений, отражению результатов общения в личностных качествах, коммуникативных знаниях, ситуации в коммуникативной сфере, саморазвитию, трудностям в общении. В связи с этим наблюдается необходимость сосредоточения внимания на вопросах диагностики и психокоррекции психологических проблем человека, связанных с трудностями в общении, коммуникативными навыками, коммуникативной компетентностью, типами личности, эмоциональной эмпатией, эмоциональным возбуждением, чувством одиночества, направленных на совершенствование деятельности специалиста-психолога.

В последние годы в нашей республике определены приоритетные направления реформ по повышению качества образования и развитию у обучающейся молодежи высоких знаний и талантов, а также формированию активного гражданского общества, создана необходимая нормативно-правовая база. В связи с этим определены такие основополагающие задачи, как «создание открытой и качественной системы обучения для молодежи, обеспечение того, чтобы молодежь получала отличные знания на всех этапах обучения, а также поддержка и поощрение одаренных и талантливых учеников». В целях углубления научных исследований по диагностике и коррекции психологических трудностей в подростковом общении созданы возможности для поиска новых теоретических решений.

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, определенных в Указах Президента Республики

Узбекистан УП-60 от 28 января 2022 г. «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», УП-6260 от 13 июля 2021 г. «О дополнительных мерах по всесторонней поддержке молодежи и дальнейшему повышению ее общественной активности», Постановлении Президента Республики Узбекистан ПП-3674 от 19 апреля 2018 г. «Об образовании центра передовых технологий при Министерстве инновационного развития Республики Узбекистан», Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан №472 от 7 июня 2019 г. «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы подготовки кадров в области психологии и профилактики правонарушений в обществе», а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

